


**Biologiya fanidan DTSlari,
o`quv dastur, darslik va
o`quv qo`llanmalar tahlili.**

(2 soat ma`ruza)

SVXTHQTMOI “Tabiiy va
aniq fanlar ta’limi” kafedrası
katta o’qituvchisi Rahmatova

Salima


Reja:

1. Davlat ta'lim standarti haqida umumiy tushuncha.
 2. Biologiya ta'lim standartining tarkibiy qismlari.
 3. O'quv dasturi haqida tushuncha.
 4. Biologiya o'quv dasturining tuzilishi.
 5. Biologiya darsliklari tahlili
- 

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'limni joriy etishning ilmiy-nazariy asosi bo'lgan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasida «Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir» deb belgilab qo'yilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichida yuqorida qayd etilgan ta'lim muassasalari uchun DTS ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16-avgustdagi Qaroriga binoan **amaliyotga joriy** etildi.

“Standart” so‘z inglizcha
bo‘lib, “nusxa”, “o‘lcham”,
“me‘yor” degan ma‘nolarni
anglatadi.



Umumiy oʻrta taʼlimning
davlat taʼlim standarti
oʻquvchilar umumtaʼlim
tayyorgarligiga, saviyasiga
qoʻyiladigan majburiy minimal
darajani belgilab beradi.

Biologiya ta'limi standartidagi «O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar» o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi shart bo'lgan ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Bunda o'quvchilarning bilishi, anglashi, amaliy ishlarni bajara oladigan ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash va ularning sifatini aniqlashga imkon beradi. Belgilangan ko'rsatkich va talablar biologiya ta'limining asosiy sifatlarini baholashda o'lchov bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda quyidagi printsiplar asos qilib olingan:

- ? davlat ta'lim standartining davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;
- ? o'quv dasturlari mazmunining jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liqligi;
- ? umumiy o'rta ta'limning uzluksiz ta'limning boshqa turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;
- ? umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;
- ? ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;
- ? umumiy o'rta ta'lim mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga tayanish;
- ? o'qituvchilarning pedagogik tafakkurida qaror topgan an'anaviy qarashlar bilan
- ? «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi;

? “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisi xizmati va Vazirlar Mahkamasi Ta’lim, sog’liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar kompleksining 2010-yil 17-martdagi qo‘shma yig‘ilish bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Oliy va o‘rta maxsus va Xalq ta’limi vazirliklarining 134- va 62-sonli qo‘shma buyruqlariga asosan umumta’lim fanlarining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha umum ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta’lim muassasalarining yuqori pedagogik mahorat va tajribaga ega amaliyotchi o‘qituvchilari, yetakchi olim, metodist va mutaxassislarni jalb etgan holda 31 ta ishchi guruhlarini tuzildi.

Tahlillar asosida o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlari va psixofiziologik xususiyatlariga asoslanmasdan umumta’lim fanlari o‘quv dasturlariga kiritilgan yoki 12 yillik majburiy ta’limga o‘tish davrida quyi bosqichlarga o‘tkazilgan, sinflar, ta’lim bosqichlari (umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb hunar ta’limi) mazmunida takrorlangan, izchilligi ta’minlanmagan jami **813 soat** hajmdagi mavzular aniqlanib, **optimallashtirildi.**

Shundan, **247 soat** hajmdagi mavzular umumiy oʻrta taʼlim oʻquv dasturlaridan chiqarilib, **oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimiga, 327 soat** hajmdagi mavzular esa **sinfdan-sinfga** oʻtkazildi, **239 soat** hajmdagi mavzular sinflarda takrorlanganligi uchun **qisqartirilib**, maqbullashtirildi.

Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimiga oʻtkazilgan va sinflar kesimida maqbullashtirilgan soatlar hisobidan **amaliy mashgʻulotlar** uchun qoʻshimcha **240 soat**, **murakkab mavzularni** kengaytirib oʻqitish uchun **359 soat**, **yangi mavzular** uchun **214 soat** ajratildi.

Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimida **413 soat** hajmdagi mavzular **optimallashtirilib**, **333 soat** hajmdagi mavzularga qoʻshimchalar kiritilib toʻldirildi va qolgan **80 soati mavjud mavzular** tarkibiga singdirildi.

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlari, oʻquv dasturlari va darsliklari uzviyligi, uzluksizligi hamda oʻquvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mosligi ikki bosqichda tahlil qilindi.

- ? **Birinchi bosqichda** (gorizontal tahlil) umumiy oʻrta ta'limda oʻqitiladigan 24 ta oʻquv fani boʻyicha DTS, oʻquv dasturi va darslik mazmuni sinflar kesimida tahlil qilinib, tegishli xulosa va takliflar tayyorlandi.
- ? **Ikkinchi bosqichda** (vertikal tahlil) oʻrta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida oʻrganilishi davom etadigan 17 ta umumta'lim fanlari, jumladan, biologiya fani boʻyicha umumiy oʻrta va oʻrta maxsus ta'limning Davlat ta'lim standartlari, oʻquv dasturlari uzviylik va uzluksizlik jihatidan tahlil qilinib, oʻquvchilarning ta'lim bosqichlarida egallashlari lozim boʻlgan bilimlarining hajmi optimallashtirildi.

Jumladan, ishchi guruhlar xulosalari va tahlillari, Ilmiy - metodik Kengash tavsiyalari asosida umumiy oʻrta ta'lim maktablarining **5-9-sinflarida biologiya fanidan** jami **12 soat** hajmdagi **6 ta mavzu optimallashtirildi**. Shundan, **9 soat** hajmidagi **4 ta mavzu** kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'quvchilari yoshiga xosligi sababli umumiy o'рта ta'lim dasturidan chiqarildi. **1 soatlik 1 ta mavzu sinfdan-sinfga** va **1 soatlik yana bir mavzu bobdan-bobga** ko'chirildi Mazkur o'zgarishlar 5, 6, 8, 9-sinflarda amalga oshirildi.

Natijada, umumiy oʻrta taʼlim davlat standartlarining sharhlari va umumtaʼlim maktablari, akademik litseylar va kasb hunar kollejlarida oʻqitiladigan **18 ta umumtaʼlim fanlari boʻyicha oʻquv dasturlari qayta ishlandi** hamda Respublika taʼlim markazi huzuridagi fanlar boʻyicha Ilmiy-metodik kengashlar hamda oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi yoʻnalishlari boʻyicha oʻquv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning fan komissiyalarida muhokama etilib, tasdiqlandi.

Bundan tashqari, barcha umumta'lim fanlari bo'yicha o'qituvchilar uchun taqvim-mavzu rejalarining namunalari ishlab chiqildi hamda optimallashtirilgan o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar tayyorlandi.

Shu asosda umumiy o'rta ta'limda foydalanib kelinayotgan darsliklar mazmuniga ham tegishli o'zgartirishlar kiritildi, masalan, 8-sinf iqtisodiy bilim asoslari fanidan 6,3%, geografiya fanidan 3,5%, 9-sinf biologiya fanidan (Sitologiya va genetika asoslari) 6,2% o'zgarishlar darsliklar mazmuniga singdirildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya ta'limining maqsadi:

Biologiya-tirik tabiat, hayot, uning kelib chiqishi, xilma-xilligi, taraqqiyotning barcha jihatlarini haqidagi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, umumta'lim maktablarida biologiya ta'limining roli shu fanning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati bilan belgilanadi. Respublika mustaqilligining dastlabki yillaridan ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish natijasida to'plangan tajribalar, chiqarilgan bir qator qonunlar va biologiya o'qitishning kelgusidagi talablar darajasiga ko'tarish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirishi hamda ijtimoiy hayotlari va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashlari lozim.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida biologiya taʼlimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ? -oʻquvchilarni asosiy biologik tushunchalar, yetakchi gʻoyalari, ilmiy dalillar, qonunlar, ilmiy bilish usullari, organik olamning manzarasini shakllantirishga oid bilimlar bilan tanishtirish;
- ? -tirik tabiat va uning taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan moslanish mexanizmlari haqida maʼlumot berish;
- ? -tirik organizm va unda ketadigan barcha jarayonlar.
- ? -oʻquvchilarni organizmlarning hayoti, ularni individual va tarixiy rivojlanishining asosiy qonunlari, (hujayra, organizm, populyasiya, tur, darajalar) biologik jarayonlar haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, ularning biologiyani oʻrganishiga boʻlgan qiziqish va ijodiy qobiliyatlarini oshirish hamda kelgusidagi uzluksiz taʼlim tizimini davom ettirishlari uchun zamin tayyorlash;
- ? -oʻquvchilarni oʻzlarining va oʻzgalarning salomatliklarini saqlashga, sogʻlom turmush tarzini tarkib toptirishga yunaltirish;
- ? -biologiya taʼlimi mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika taraqqiyoti bilan mustahkam bogʻlanishini taʼminlash asosida oʻquvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yoʻnaltirish;
- ? -tabiatga, uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda boʻlish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;
- ? -biologiya taʼlimi mazmunini oʻlkaga oid materiallar bilan boyitish, biologik bilimlar zaminida mahalliy oʻsimlik va hayvon turlari, seleksiya yutuqlari, qadimda yashab ijod etgan buyuk allomalarimiz va hozirgi olimlarimizning biologiyaga oid ishlari bilan tanishtirish orqali oʻquvchilarni milliy istiqlol va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat.

Biologiya fanidan o'quvchining kompetensiyasi

biologiya fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'lay olish qobiliyatidir.

Kompetensiyaviy yondashuvga
asoslangan ta'lim – o‘quvchilarda
egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini
o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida
amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini
shakllantirishga yo‘naltirilgan ta'limdir.

Kompetensiyalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

*Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli **xususiy kompetensiyalar** ham shakllantiriladi.*

Tayanch kompetensiyalar:

Kommunikativ kompetensiya

- ? jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;
- ? o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;
- ? ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- ? muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;
- ? turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish;

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi

- ? mavjud axborot manbalaridan (*internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.*) foydalana olish;
- ? media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta‘minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;
- ? ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;
- ? kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (*oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to‘ldirish, mehmonxona ro‘yxatida o‘zi to‘g‘risidagi ma'lumotlarni qayd eta olishi va boshq.*)

?

Tayanch kompetensiyalar:

? **3. Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi**

- ? shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;
- ? hayot davomida o'qib-o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;
- ? o'z hatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish;
- ? o'qib-o'rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

? **4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi**

- ? Jamiyatda bo'layotgan voqyea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;
- ? o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya'ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish);
- ? mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo'lish;
- ? kasbiy mavqyeining o'sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo'lish.

Tayanch kompetensiyalar:

5. Umummadaniy kompetensiyalar

- ? Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish;
- ? badiiy va san'at asarlarini tushunish, ta'sirlana olish;
- ? orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (*urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.*) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- ? o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;
- ? xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

- ? aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;
- ? shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;
- ? kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish;
- ? inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish.

Biologiya o‘quv fani bo‘yicha xususiy kompetensiyalar:

1. Biologik jarayon, hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish.

? Tabiat va unga xos bo‘lgan biologik jarayonlar-o‘simliklarning o‘shini kuzatish, ularni tagini yumshatish, o‘g‘itlash, tirik organizmlarning tuzilishi, faoliyati va tashqi muhitdagi rolini tushunish, biologik jarayonlar to‘g‘risida aniq tasavvur qilish va anglash layoqatini hosil qilish. Biologik jarayon, hodisalarni kuzatish va tushuntirish.

2. Ekologik madaniyat. Tabiat qonunlarini yaxshi bilish, amalda tatbiq etish, yoshlarni ekologik madaniyat ruhida tarbiyalash, salomatlik, suv, biologik xilma-xillik, atrof-muhit tozaligini, sog‘liqlikni mustahkamligini, turmush farovonligini, tabiiy va antropogen ofatlar, chiqindi muammolarini o‘rganish va ularni bartaraf etishda o‘z hissasini qo‘shishga o‘rgatish asosida ekologik madaniyatni shakllantirish. Tabiatni qadrlash va unga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lish, o‘z sog‘ligi va boshqa insonlarning sog‘ligini qadrlash, tabiatda o‘zini tutish, o‘simlik va hayvonlarni muhofaza qilishga o‘rgatish.

3. Tajribalarni o‘tkazish uchun zarur jihozlar bilan ishlay olish. Biologiyaning asosiy tushuncha va qonuniyatlarini tushuntirishda havfsizlik qoidalari, kimyoviy moddalar, jihozlardan foydalanish hamda ular yordamida mavzularga oid bo‘lgan oddiy tajribalar o‘tkazish layoqatini hosil qilish.

4. Biologiyadan olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash.

? O‘rganilgan bilim va ko‘nikmalarni kundalik amaliy hayotda qo‘llay olish. Nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun o‘simliklarni parvarishlash, o‘g‘itlash, shakl berish, o‘simliklarni muhofaza qilish, test topshiriqlarini bajarish, sog‘lom turmush tarziga oid mashg‘ulotlarni bilish, kundalik iste‘mol maxsulotlarning foydali va zararli tomonlarini farqlash.